

4-dars

Darsning mavzusi: Undosh tovushlar va harflar

Darsning ta'limiy maqsadi: undosh harflar ustida ishlash, talaffuzi va imlosi farqlanuvchi undosh tovushlar ustidagi xatolarni to'g'rilash; so'zlarni to'g'ri yozish, bir tovush bilan farqlanuvchi so'zlarning ma'nolarini farqlash, harf birikmasi bilan yoziladigan so'zlarda xato qilmaslikka o'rgatish, bo'g'inga bo'lish qoidalari haqida bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, shirinso'zlikka, mehnatsevarlik va intizomlilikka o'rgatish; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; insofli va himmatli bo'lishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "Baholar doskasi!" ta'limiy o'yini.

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari va texnik vositalar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uy vazifasini tekshirish. Uyga berilgan vazifa o'quvchilardan so'raladi. To'g'ri va husnixat bilan bajargan o'quvchilarning mehnatlari inobatga olinadi.

Husnixat daqiqasi:

Kichik “d” harfi ikki unsurdan iborat: birinchi unsuri kichik to‘liq oval, ikkinchi unsuri esa osti ilmoqli uzun tayoqcha.

Daftarga bir qator kichik d harfini va shu harf bilan bog‘langan so‘zlarni yozadilar: daraxt, dala, danak, dunyo, dengiz.

19-mashq o‘quvchilar bilan og‘zaki bajariladi. Berilgan she’rdagi undoshlar ustida ishlanadi.

20-mashqda berilgan hazil savollarga javob topiladi. Javoblari undosh bilan tugaydigan savollar ko‘chirib yoziladi.

IV. Yangi mavzu bayoni:

Darslikda berilgan qoida tushuntirilib izohlanadi.

O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Ular yozuvda 23 ta harf bilan ifodalananadi. Shulardan uchtasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi.

Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j(jo‘ja), j (jurnal), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng

21-mashq yozma bajariladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ko‘chirilib, undoshlarining tagiga chiziladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

22-mashq. Boshqotirma o‘quvchilarga bajartiriladi.

Javoblari:

Eniga: 1) siyoh; 2) sovuq; 4) soat; 5) samolyot; 7) sut; 8) sabzi; 9) soya.

Bo‘yiga: 1) sumalak; 2) sahro; 3) santimetr; 6) Seul; 7) sel; 8) soat; 9) sahifa; 10) sabzi.

“Baholar doskasi” o‘yini. Dars boshida doskaning kichkina qismiga o‘quvchilarning ismi partadagi o‘rniga ko‘ra yozib qo‘yiladi. Dars davomida o‘quvchining har bir yutug‘i uchun ismining ostiga 1 balldan qo‘yib boriladi. Masalan, uy ishini bajarganligi uchun 1 ball, o‘tilgan mavzu yuzasidan savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun 1 ball yangi mavzuga doir misol ishlagani uchun 1 ball va hokazo.

Bunda har bir o‘quvchi ham o‘zi uchun, ham qatori (guruhi) uchun ball to‘playdi. Hech bir o‘quvchi o‘qituvchi e’tiboridan chetda qolmaydi. Har bir o‘quvchining bahosi butun sinf ko‘z o‘ngida turishi unga alohida mas’uliyat yuklaydi va u ko‘proq ball to‘plashga harakat qiladi, darsdan chalg‘imaydi. Baholar doskasida o‘quvchining familiyasi emas ismi yozilishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat samimiyligini bo‘lishiga olib keladi.

Dars oxirida har bir o'quvchining va har bir qatorning ballari hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi. O'quvchilarning baholari jurnalga qo'yiladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

24-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOPE TISHUCHUN EMAS!